

BUDJET AUDITI TIZIMINI JORIY QILISH ISTIQBOLLARI

Namozov G‘ayratjon Baxtiyor o‘g‘li

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida bo‘lgan yurtimizda ham har bir sohada islohotlar, yangilanishlar va o‘zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bunda xarajatlar asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri budget mablag‘laridan amalga oshirilishini hisobga olsak, har qanday loyihalarni bajarishda mablag‘lardan oqilona foydalanish, risklarni mimimallashtirish talab qilinadi. Shuningdek qonun buzilish holatlariga, samarasiz yakunlanadigan loyihalarga va mablag‘larni talon-taroj bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik ham muhim sanaladi. Joriy yilning 16-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida **2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar** yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Aynan shu yig‘ilishda mamlakatimiz Prezidenti ko‘plab masalalar bo‘yicha muammolarni aytib o‘tdi. Jumladan: budget tizimida ortiqcha xarajatlar ko‘pligi, yirik sanoat tarmoqlariga soliq yuki kamaytirilgan bo‘lsada, ko‘p tarmoqlar davlatga tushumni ko‘paytirish o‘rniga xarajatini oshirayotgani, moliayviy intizomni kuchaytirib 2024-yilda budget defitsitini 4 foizdan oshirmaslik zarurligini, soliq tizimi va soliqchilar faoliyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish vaqt kelganini va yana bir qator masalalarda yangi loyihalarni qo‘llash zarurligi ta’kidlandi¹.

Iqtisodiyot jadallik bilan rivojlanayotgan, yangi iqtisodiy tarmoqlar va zamonaviy axborot texnologiyalarining iqtisodiyotga faol qo‘silib borishi sharoitida moliyaviy nazoratning vazifalari kengayib boradi. Bunda Davlat nazorati organlarining faoliyati uyg‘unlashtirilishi va samaradorligi oshirilishi kerak. Shuningdek mustaqil nazorat bo‘lgan audit tizimini ham rivojlantirish zarur.

Iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko`rsatmoqdaki, moliyaviy nazorat tizimida auditning o‘rni, auditor va mijoz o‘rtasidagi o‘zar munosabatlар kengayib bormoqda. Bugungi kunda ushbu mamlakatlarda davlat moliyaviy nazorat organlarining aksariyatida davlat budgeti nazoratini amalga oshirishning eng muhim usullaridan biri sifatida samaradorlik auditidan keng foydalanimoqda. Uning eng muhim maqsadi - mavjud davlat resurslaridan





foydalanishning ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarini aniqlash, masalan, salomatlik va hayot sifatini yaxshilash, ta’lim sifatini oshirish yoki jinoyatchilikni kamaytirish. Budjet auditni tizimini joriy qilish va unda auditning xalqaro standartlarini joriy

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-mayda o’tkazgan makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minalash bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishidan.

qilish ushbu sohani yanada takomillashtirishda qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ilmiy asoslarda ko‘rib chiqsak.

Audit standartlari – o‘zining professional faoliyati davomida hamma auditorlar rioxasi qilishi kerak bo‘lgan yagona asos bo‘luvchi tamoyillardir. Jahon mamlakatlari o‘rtasida milliy hisob va audit tizimlarini yaxlit holga keltirish uchun yagona qoidalarni ishlab chiqilgan. Bu qoidalarni auditorlik amaliyotida auditning xalqaro standartlari(AXS) maqomini olgan. Auditning xalqaro standartlari auditning barcha sohalarini qamrab oladi. Doimo o’zgarib turuvchi iqtisodiy sharoitda auditning xalqaro standartlari ham takomillashib boradi.

Budjet auditni budget ijrochilarining budget yili davomida qonuniylik, ratsionallik va foydalilik masalalari bo‘yicha protseduraga rioxasi qilganligini aniqlash bo‘yicha topshiriqqa ega. Budget auditining ikkita asosiy vazifasi-budgetni to‘g‘ri tuzishni ta’minalash, ya’ni budget qoidalariiga muvofiq budgetni ijro etish va mamlakat manfaatlarini yuqori darajada qondirish maqsadida budget vazifalarini moliyalashtirishni ta’minalash.

Yuqoridagi ma’lumotlar va mulohazalardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, budgetni nazorat qilishda budget auditini joriy qilish budgetni yanada to‘g‘ri va maqsadli bajarishga yordam beruvchi muhim omil sanaladi. Rivojlangan davlatlar allaqachon budget nazoratini oliy audit organlariga topshirgan va bunda xalqaro standartlar asosida faoliyat olib borishlarini ta’milagan. Yurtimizda ham moliyaviy nazorat sohasida muhim o‘zgarishlar kiritish vaqtি kelgan. Mustaqilligi yuqori bo‘lgan yuqori salohiyatli kadrlarga ega bo‘lgan va xalqaro audit standartlari asosida faoliyat yuritadigan auditorlik organini tashkil qilish yurtimiz kelajagi va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun juda muhim deb hisoblash mumkin.